

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAN`ATSHUNOSLIK FAKULTETI

TASVIRIY SAN`AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

**Girix va islimiy naqshlarni uyg`unlashtirib mis kandakorligida kompozitsiya
yaratish**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: 5110800 – Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi

ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi:

Bozorova Maftuna

Ilmiy rahbar: o`qituvchi A.S.Musinova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi

_____sonli bayonnomasi “_____” _____2020 yil

Buxoro – 2020

MUNDARIJA

Kirish-----	2
I Bob. O`zbek xalq amaliy bezak sana`tida mis kandakorlik san`atining tutgan or`ni va ahamiyati	
1.1. Xalq zakovati va qadriyatlarining gultoji -----	6
1.2. Zamonaviy kandakorlik san`atining kelib chiqish tarixi-----	9
1.3. Milliy kandakorlik maktablari va ular orasidagi farqlar-----	13
1.4. Xunarmandchilikni o`rgatishda ustoz-shogird an`analari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati-----	19
II Bob. Yosh avlodga mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	
2.1. Ta`lim jarayonida mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishda individual yondashishning tutgan o`rni-----	25
2.2. Bo`lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo`yicha bilim-ko`nikmalarini shakllantirish-----	29
2.3. Mis kandakorlikda ishlatiladigan naqsh turlari-----	34
2.4. Kandakorlikda mahsulot ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishning amaliy qismini olib borish jarayoni-----	38
Xulosa-----	41
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati-----	44
Ilovalar-----	45
Buxoro kandakorlik maktabi naqshlarining izohli lug`ati-----	62

REJA

Kirish

I Bob. O`zbek xalq amaliy bezak sana`tida mis kandakorlik san`atining tutgan or`ni va ahamiyati

1.2. Xalq zakovati va qadriyatlarning gultoji

1.2. Zamonaviy kandakorlik san`atining kelib chiqish tarixi

1.3. Milliy kandakorlik maktablari va ular orasidagi farqlar

1.4. Ustoz-shogird an`anasi – milliy qadriyat

II Bob. Yosh avlodga mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari

2.1. Ta`lim jarayonida mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishda individual yondashishning tutgan o`rni

2.2. Bo`lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo`yicha bilim-ko`nikmalarini shakllantirish

2.3. Mis kandakorlikda ishlatiladigan naqsh turlari

2.4. Kandakorlikda mahsulot ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishning amaliy qismini olib borish jarayoni

Xulosa

Ilovalar

Buxoro kandakorlik maktabi naqshlarining izohli lug`ati

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq, yuqori malakali kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan, davlat siyosatini yuritib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida shaxsning har tomonlama shakllanishi, bilim va ko'nikmalarining chuqur rivojlantirib borilishi, o'zlari tanlagan kasb-hunar bo'yicha ta'lim olishlari ko'rsatilgan. O'zbekiston ta'lim tizimi rivojining hozirgi bosqichida hamkorlik pedagogikasi muhim o'rin tutadi. Pedagog olimlar hamkorlik pedagogikasiga «ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat jarayonidir», deya ta'rif berishadi.

Bugungi uzluksiz ta'lim tizimida ta'limtarbiya jarayonini yuqori darajaga ko'tarishning muhim omillaridan biri – o'qituvchi-talaba hamkorligini yo'lga qo'yishdir. Ushbu hamkorlik ta'lim-tarbiya jarayonida ob'ekt-sub'ekt yoki sub'ekt-ob'ekt tarzida amalga oshadi. Tarbiya jarayon sifatida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar, ot-onalar, jamoatchilik va jamoalar bilan o'zaro munosabatlardan iborat. Tarbiya ikkiyoqlama jarayon tarzida tarbiyaviy munosabatlarsiz amalga oshmaydi. Bu munosabatlar jarayoni ishtirokchilari individual ongi va irodasiga bog'liq bo'lmay, ular o'zaro munosabatda tarbiya jarayonining sub'ekt va ob'ektlariga aylanib, ijtimoiy munosabatlarning aloqadorligini tashkil etadi. O'z navbatida ular ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasi bo'lsa-da, ularning xarakteri jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, axloqiy munosabatlar darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiya

jarayonidagi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'sirlari ma'naviy-axloqiy munosabatlarni keltirib chiqarib, tarbiyaning o'ziga xos amaliy va nazariy maqsadini hal qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun uning noma'lum, yashirin xususiyat va tendentsiyalarini o'rganish va hisobga olish pedagogik jarayon va hodisalarning haqiqiy mohiyatini ochishga, munosabatlarga aloqador umumiy tomonlar –qonuniyatlarini bilishga zamin hozirlaydi.

Shu maqsadda BuxDU San'atshunoslik fakultetida ham amaliy san'atning bir necha turlari o'rgatilib boriladi. Shular qatori mis kandakorlik san'ati fan sifatida o'rgatilishi jarayonida talabalar bilim doirasini kengaytirish bilan birga katta tarbiyaviy jarayon bosib o'tiladi.

Milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchidan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Bo'lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo'yicha bilim-ko'nikmalarini shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti: Kasb ta'limi yo'nalishida tahsil oluvchi mutaxassislarda mis kandakorligi bo'yicha bilim-ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Bo'lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo'yicha bilim-ko'nikmalarini shakllantirish nazariy va amaliy shaklli va bajarish usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: Bo'lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo'yicha bilim-ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar va xalq ta'limi vazirliklarining qarorlari, ko'rsatmalari, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining o'zbek xalq amaliy san'atini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalari, madaniyat va san'atga oid hukumatning qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar, o'zbek xalq amaliy san'atining milliy an'analari, buyuk olim va

pedagoglar, halq ustalari, sharq mutafakkirlarining badiiy ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari tashkil etdi.

Qo'llanilayotgan sohasi: Oliy talim muassasalari, to'garaklar, san'at yo'nalishlarida tahsil oluvchilar, hunarmandchilik usta-shogird maktablari.

Xalq amaliy san'ati asarlarida asrlar davomida ajdodlarimiz to'plagan boy tajriba va ijodiy mehnat o'z aksini topgan. Go'yoki ular asrlar qa'ridan so'zlayotgandek. Amaliy san'atning turlari aholining zakovati, orzu-istaklari, yorqin kelajakka bo'lgan intilishlari namunasi sifatida shakllandi va rivojlanib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida eng muhim vazifalardan biri yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, jismonan sog'lom, ruhan va intellektual rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasiga maxsus e'tibor qaratilgan. Ushbu masala ta'lim muassasalarida amalga oshadi. Bu jarayondagi muhim vazifa "umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq" ekanligi bilan belgilanadi. O'qitish metodlariga tayanishimiz va ularni to'g'ri tanlashimiz orqali, ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli, sifatli tashkil qilishga erishamiz.

O'zbekistonning barcha xududlarida xalq amaliy bezak san'atining o'ziga xos markazlari mavjud bo'lib, ular jaxon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlari bilan o'zini tanitgan. Bu qadriyatlar xalq san'atining ramzi bo'lib qoldi. Samarkand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirlil va guldor sopol buyumlar), yog'och va ganch uymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, sholchado'zlik va chitgarlik, zargarlik san'ati, chirmaga bezak tushirish san'ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham mavjud. Bu ananalardan yangi vazifalarni hal qilish yo'lida foydalanish O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati rivojlanishining muqarrar shartidir. Ushbu san'atda ham xalq xarakterining nozik xususiyatlari, uning estetik

qarashlari, dini, atrof - muxitga munosabati, iste`dodi xuddi afsonalardagi, musiqa, sheriya va raqsda singari o`z aksini topgan.

O`zbekistonda amaliy san`atning eng qadimiylaridan bir turi mi skandakorlik san`atidir. Bu san`at ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Respublikamizda xalq amaliy san`atining ushbu turi juda qadimiy bo`lib, yoshlarda hunarmandchilik madaniyatini singdirishda o`zining katta ijobiy ta`sirini o`tkazib kelmoqda. Kandakorlik an`analari asrlar mobaynida rivojlanib, uning puxta estetik qonun-qoidalari ishlab chiqilgan hamda yuksak darajadagi ijrochilik maxoratiga erishilgan. Negaki, aksariyat holda aynan kandakorlik asarlari (savdo-sotiqda metall buyumlarga talab va ehtiyoj katta bo`lgan) ramziy ifodalarning yangi badiiy va uslublarini tarqatish manbai bo`lib xizmat qilgan, mahaliy san`at an`analariga qo`shni mamlakatlar san`ati ham o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatgan.

I BOB. O`ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SANA`TIDA MIS KANDAKORLIK SAN`ATINING TUTGAN OR`NI VA AHAMIYATI

1.1. Xalq zakovati va qadriyatlarining gultoji

Xalqimiz kundalik hayotining ajralmas qismi bo`lgan hunarmandchilik san`ati, xususan, uning yog`och o`ymakorligi, ganchkorlik, kulolchilik, to`qimachilik, zardo`zlik, sozgarlik, kandakorlik, zargarlik va boshqa shakllarining bir necha ming yillik tarixga, o`ziga xos ijodiy maktab va an`analariga, atoqli namoyondalariga ega.

Bu noyob can`atning ko`plab yo`nalishlarida samarali faoliyat ko`rsatgan va ularning izdoshlari bo`lgan iste`dodli hunarmandlar doimo el-yurtimizning hurmat-ehtiromiga sazovor bo`lib, “usta”, “ustazoda” degan sharaflil nomlar bilan e`zozlanib kelmoqdalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so`ng milliy madaniyatimizning barcha sohalari qatori hunarmandchilik san`atini rivojlantirishga ham alohida e`tibor qaratila boshlandi.

Oxirgi paytlarda bizning boy madaniy merosimizni asrab-avaylash, xalq badiiy va amaliy san`atini yanada rivojlantirish, shu sohada tarixiy an`analarni izchil davom ettirib kelayotgan mohir ustalarning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash, har tomonlama qo`llab quvvatlash maqsadida tegishli farmon va qarorlar qabul qilinib, ularga yangi sharoit va imtiyozlar yaratildi.

Bu amaliy sa`y-harakatlar natijasida yurtimizda milliy hunarmandchilik san`ati jadal rivojlanib bormoqda. 2017 yilgacha “Hunarmand” uyushmasiga o`ng mingga yaqin kishi a`z obo`lgan bo`lsa, bugungi kunga kelib ularning soni uch barobar oshdi.

Hunarmandchilik sohasi – yangi ish o`rinlari tashkil qilish, yoshlarni foydali mehnatga jalb etish, turizmni rivojlantirish borasida ham katta imkoniyatlar manbai hisoblanadi. Shu bois yurtimizning barcha hududlarida ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2018 yili htspublikamizda hunarmandchilikni rivojlantirishga yo`naltirilgan qariyb 7,5 mingta

loyhani hayotga joriy etish orqali 40 mingdan ziyod yangi ish o`rni yaratildi. Shuningdek, mamlakatimiz bo`yicha tashkil etilgan 5 mingdan ziyod “Usta-shogird” maktablarida 23 mingdan ortiq yoshlar kasbiy mahorat sirlarini o`rgandilar.

Bugungi kunda qo`li gul usta va ustazodalarimiz xalq hunarmandchiligining turli sohalarida qadimiy an`analarni zamonaviy tajriba va yangiliklar bilan uyg`unlashtirilgan holda, sezilarli yutuq va natijalarni qo`lga kiritishmoqda.

Milliy hunarmandchilik rivojiga munosib hissa qo`shib kelayotgan, iqtidorli shogirdlar tarbiyalab, o`z ijodiy maktablarini yaratgan zahmatkash ustalarimizni rag`batlantirish, ularning mehnatini e`tirof etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Shu maqsadda mustaqillik yillarida yuzlab usta va hunarmandlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari – faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanganini ta`qidlash o`rinlidir. Jumladan, buxorolik mashhur zardo`z Muyassar Temirova, samarqandlik me`moray yodgorliklarni ta`mirlovchi usta Mirumar Asadov, farg`onalik yog`och o`ymakori Abdug`ani Abdullayev hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi munosib xizmatlari uchun mamlakatimizning oliy mukofoti - “O`zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangani soha rivojiga qaratilgan ulkan e`tbor natijasidir.

Hozirgi vaqtda hunarmandchilik san`ati xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o`rin egallamoqda. Birgina 2018 yilda mamlakatimizda sohaga oid yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko`rgazmalari va boshqa tadbirlar o`tkazilgani ham shundan dallolat beradi. Buxoro shahrida “Ipak va ziravorlar”, Marg`ilonda “Atlas bayrami” Xalqaro festivallari o`tkazib kelinayotgani, ularda xorijiy davlatlardan ham vakillar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir.

Bu yil O`zbekistonda ilk bor tashkil etilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali uchun Qo`qon shahri tanlangani bejiz emas. Ushbu qadimiy va go`zal shahar azaldan dunyoga dovrug`i ketgan mohir hunarmandlar maskani, umuman, Farg`ona vodiysida mustahkam qaror topgan halq badiiy va amaliy san`atining markazi sifatida ma`lum va mashhurdir. Qoqon yog`och o`ymakorlik maktabining atoqli namoyandasi, O`zbekiston xalq rassomi Qodirjon Haydarovning ushbu sohada milliy an`analarni saqlab qolish va yanada rivojlantirish, iste`dodli yoshlarni

tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlari har qanday hunarmand uchun ibrat va o`rnak namunasi bo`lib xizmat qiladi.

Ushbu festivalga Afrika, Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika hamda Tinch okeani mintaqalarida joylashgan ko`plab davlatlardan 200 nafarga yaqin qo`li gul ustalar, soha mutaxassislari, san`atshunos olimlar, faxriy mehmonlar, ommaviy axborot vositalari vakillari tashrif buyurishi kutilmoqda. Qolaversa, O`zbekistonning turli hududlarida samarali faoliyat ko`rsatayotgan mingdan ziyod mahalliy hunarmandlar o`z ishlari, ijod namunalari bilan ishtirok etadigan mazkur anjuman sohani yanada ravnaq toptirish, bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo`yicha qizg`in fikr almashuv maydoniga, tom ma`noda san`at va hunarmandchilik bayramiga aylanishiga ishonamiz.¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston hunarmandchiligi durdonalari. Toshkent, "O`zbekiston". 2019,-B.5-6.

1.2. Zamonaviy kandakorlik san`atining kelib chiqish tarixi

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. O'zbekiston hududida joylashgan Markaziy Osiyo shaharlarida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi III asr oxiri hamda II asr boshlarida birinchi (maxsus mis qotishmasi) to'g'nag'ichlar Misr, O'rta er dengizi, Mesopotamiya, Hindiston, Markaziy Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To'g'nag'ichlarda kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o'rtalarida kandakorlik «hayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotladi.

III—VIII asrlarda, ya'ni so'nggi antik va ilk o'rta asr davrida Markaziy Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topdi. Qimmatbaho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'ytomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi.

IV asrda Markaziy Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviriy va amaliy san'atning mahalliy an'alarining tarqalishiga imkon yaratdi.

VI—VII asrlarda badiiy metall buyumlar yuksak texnik sifatda bajarilganligiga Anikov lagani misol bo'la oladi. Bu laganda qal'a darvozasi oldidagi sahna tasvirlangan, «Yakkama-yakka olishuv» voqeasi tasvirlangan kosa o'sha davr hayotidan bir parcha bo'lib, undagi o'ymaning mayinligi, aniq nafosati, kompozistiyasi, ta'sirchanligi, kuchliligi bilan mashhurdir.

VIII—XIII asrlarda qimmatbaho metallardan qilingan idishlar islom dini dunyosining ko'pgina burchaklarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p narsalar ishlanar, binolarning bezaklariga oltin suvi yugurtiriladi. Keyinchalik esa

xom ashyo sifatida birgina qimmatbaho metallarning o'zi kifoya qilmay hiyla arzon materiallar mis va uning turli qotishmalari ishlatildi. Qizil misdan har xil ko'zalar, dekchalar, idish-tovoqlar, jezdan va sariq misdan shamdonlar, poymonlar, oq mis hamda brinjidan ko'zalar, kir tog'oralar, katta-kichik piyola va shu kabilar yasalar edi.

Arxeologlarning topilmalari shuni ko'rsatdiki, arab istilosi davrigacha so'g'd aholisi ro'zg'orlarida badiiy metal buyumlar keng tarqalganligi isbotlandi. Hayvon shakli ifoda etilgan mis naqshlar, ya'ni yovvoyi hayvonlar kallasi va boshqalar topilgan.

IX—XIII asrlarda kumush ishlab chiqarish inqirozga uchraydi Temur hukmronligigacha buyumlar asosan bronza va misdan tayyorlangan.

IX—X asrlarda islom dini Markaziy Osiyo viloyatlariga kirib borishi munosabati bilan turli-tuman xalqlarning san'ati an'analarini o'zida mujassamlashtirgan yangi g'oyaviy uslub paydo bo'ldi. Musulmon Sharqda birinji va mis buyumlar ko'p tarqalgan bo'lsada keyinchalik ular o'rnini kumush va oltin metallar egalladi.

XI asrda hunarmandchilik, naqqoshlik yanada rivojlandi, jonivorlar tasviri va ertak syujetlari ustalar ish tematikasida yana ko'p vaqtgacha saqlandi. Bu davr buyumlari Termiz va Namangan shahar muzeylaridagi mis laganlar, oftobalar, ko'zgular, siyohdonlarda yuksak sifatga ega bo'lgan afsonaviy voqealarni ifodalagan.

Yuqorida aytib o'tilgan materiallardan yasalgan buyumlar oltindan juda kam farq qilar edi. XI asrda yashab o'tgan shoir Nosir Xusrav asarlarida brinjidan qilingan ko'zani ko'rib lol qolgani, uni oltindan hech farq qilmasligini bayon qilib o'tgan edi.

XI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo xalq amaliy san'atida katta burilish bo'ldi. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi, mis va uning qotishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ldi, to'g'ri to'rtburchakli barkashlar, qorni sharsimon hamda bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, yarim doira ketmonlar, siyohdonlar, hovoncha va boshqalar juda ko'p ishlatilar edi. Bu buyumlarning

yuzalariga boʻrtma kandakorlik usulida naqsh ishlash kamayib borib, uning oʻrniga oʻyib naqsh ishlash (gravyura) urf boʻlib qoldi. Ishlangan bezaklar IX—X asrlarda beoʻxshov qoʻpol shaklini yoʻqotib juda chiroyli koʻrinishga ega boʻldi.

XVIII—XX asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan boʻlib, Buxoro, Qoʻqon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar boʻlgan. Boy xonadonlari naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Ular xonadon sohibining davlatmandligini namoyish qilib turgan. XIX asr oʻrtalarida vopurushlar paydo boʻlgan. Fargʻona vodiysida doʻkondor Buxoro va Toshkentda esa vopurush (olibsotar)lar deb yuritiladi. XIX asr oʻrtalaridan boshlab vopurushlar hunarmandlardan buyumlarni arzon baholarga sotib olar edilar. Ularni savdogarlarga oshirilgan narxda oʻtkazganlar yoki bozorlarga olib borib sotganlar. Ular xalq amaliy sanʼati ustalarining tayyorlagan gilam, oftoba, quticha, qilich, har xil idish va boshqalarini xalqqa etkazib berishda «Savdo vositachilari» rolini oʻynaganlar. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qoʻshilishi fabrika mollarini kelishi va uni shu erda ishlab chiqarilishi mahalliy hunarmandchilar ishiga jiddiy taʼsir etdi. Shuning uchun ham hunarmandlar talabiga boʻlgan ehtiyoj pasayib ketdi.

1914—17 yillarda urush tufayli xoʻjalik qiyinchiliklari Markaziy Osiyoga metall, asosan mis taxtalari olib kelish kamayib, badiiy metall ishlab chiqarish pasayib ketdi, shogirdlar anʼanasiga eʼtibor berilmadi. Shuning uchun 30 yillarga kelib misga zarb qilish ustalari juda kamaydi. 1930 yilda Samarqand badiiy bilim yurti tashkil etildi. 1932 yilda esa Toshkentda badiiy oʻquv ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi. Buxoroda esa shogirdlar tayyorlash yoʻlga qoʻyildi. Bu oʻquv ishlab chiqarish kombinatlariga Xiva, Qoʻqon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardan kandakor, kulol, yogʻoch oʻymakor va boshqa sanʼat turlari ustalari taklif qilindi. Ular orasida kandakor usta S. Xudoyberganov ham bor edi.

1960 yillarda davlat sanoat korxonalarida tashkiliy pala-partishlik oqibatida kandakorlik buyumlari ishlab chiqarish inqirozga duch keldi. Qoʻqon va Xivadagi kandakorlik ishlari uncha-muncha davom etdi.

1967 yilda Buxoroda kandakorlik to'garak-ustaxonasi tashkil etildi. Unda mashhur kandakor, ustazoda Salimjon Hamidov rahbarlik qildi. U kishi qisqa muddat ichida 50 dan ortiq shogird tayyorladi.

1973 yilda usto Salimjon Hamidov vafotidan keyin shogirdlari uning ishini davom ettirdi.

Bugungi kunga kelib usto Salimjon tomonidan o'rgatib chiqargan kandakorlar ham e'zoz va obro' topib o'z ishlarining mohir usta kandakorlaridirlar. Ular kandakorlikni yanada ravnaq topishi uchun tinimsiz ishlayaptilar va izlanmoqdalar.

Ayniqsa 1991 yildan hozirgacha kandakorlik san'ati barq urib, gullab yashnayapti. Kandakorlik maxsulotlari rang barangligi, naqsh kompozistiyasining nixoyatda boyligi, ish sifatini juda ham nafisligi va ko'rkamligi kishini hayratga qoldiradi. O'z ustida ishlayotgan ustolar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan A.Hamidov, M.Axmedov, S.Muxsinov, U.Aliyev, T.Qosimov, R.Avezov, R.Ro'ziev, D.Halimova kabi buxorolik kandakor ustalar hamda ularning iqtidorli shogirdlari I.Muxsinov, Sh.G'ulomov, Q.Saidov, B.Halimov, J.Qosimov, J.Sodiqov, D.Fayzullaevlar yuksak saviyadagi badiiy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlarini yaratib kandakorlik san'atining rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Salimjon Hamidov shogirdlari hozirgi kunda Buxoro kandakorlik maktabini saqlab qolish va rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

1.3. Milliy kandakorlik maktablari va ular orasidagi farqlar

Buxoro kandakorlik maktabi

Hammaga ma'lumki, Buxoro Osiyoning eng qadimgi va tarixiy shaharlaridan biridir. Uni IV asrdayoq yirik qadimiy shaharlaridan biri hisoblashgan. Buxoro Xuroson, Marv Eronning shimoliy rayonlari bilan chegaradosh bo'lgani uchun ham undagi san'at asarlariga ta'sir etgan. Buxoro hunarmandlar va olimlar to'plangan yirik markaz bo'lib olamga tanildi.

Mo'g'ullar istilosi davrida Buxoro ancha zarar ko'rgan bo'lsa-da, lekin hunarmandchilik to'xtamay rivojlanaverdi. XVIII asrning oxiriga kelib islom madaniyatining markaziga aylanib qoldi. Bu shahar qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq bo'yicha juda yaxshi aloqada edi. Yevropa, Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini yaxshi yo'lga qo'yib o'zi ham katta obro'ga ega edi. Buxoro o'zining gilamlari, zarbof to'nlari, ajoyib mis buyumlari bilan mashhur edi. Buxoro hunarmandlari alohida-alohida mahalla bo'lib yashaganlar. Ular faqat misgarlik va kandakorlik bilan mashg'ul bo'lgan, shuning uchun ham bu mahallalar misgarlar, ko'mirchilar, zargarlar va boshqalar bo'lgan. Metall xom-ashyosini

Buxoroga asosan Rossiyadan keltirganlar. XIX asrning oxirida Rossiyada fabrika mahsulotlari ko'payishi tufayli hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kamayib bordi. O'sha davrlarda kandakorlik mahsulotlari inqirozga uchraydi. 1925 yili "Po'lat" nomi bilan hunarmandchilik arteli tuzildi. Buxorodan azaldan kandakorlik buyumlari rangba-rang bo'lgan.

Buxoro kandakorlik idishlari sodda hamda sipoligi bilan farq qilgan. Chekma hamda katak bilan texnik usullarni ishlash juda keng qo'llanildi. Mis buyumlarning zamini kesma uslub bilan bezatilib, sirti qalay bilan qoplangan hollardagina zaminga chekma gullar o'yilgan. Chekma bu, har xil katta va kichik nuqtalarzarb




qilingan naqsh zamini va gulning sirtini jimjimador qilib bezatiladigan usul. Chekma chekuv qalam asbobi bilan bajariladi. Chekma XX asrning 20 yillarida Buxoroda paydo bo'ldi. XIX- XX asr kandakorlik buyumlari naqshlarining oddiyliigi bilan qadimgi Buxoro mis buyumlarining naqshlaridan farq qiladi. Buxoro naqshlari Toshkent naqshlariga qaraganda nafis, Qo'qon naqshlariga qaraganda yirikroqdir. Buxoro mis buyumlaridagi naqshlar me'morchilik motiviga xos bo'lib, aniq va yorqin tasvirlangan. Ular mehrob, koshin, g'isht, nimg'isht, va boshqa naqshlarni ishlatganlar. Keyinchalik XIX va XX asr boshlarida qadimgi yozuvlarni naqshga qo'shib bezatilgan bo'ldi. Kandakorlar mis buyumlariga arab yozuvini o'simlik naqshiga o'hshatib zarb qildilar.

Toshkent kandakorlik maktabi

Toshkent XVIII asrning oxirlarida O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri bo'lib, uning Afg'oniston, Xitoy va Rossiya davlatlari bilan savdo aloqasi juda yaxshi bo'lgan. Rossiyadan mis, temir, kumush sotib olinardi. Toshkentni Rossiya bosib olingandan so'ng u yirik shaharga aylandi. Shaharda hunarmandlar mahallalari barpo bo'ldi. 1966 yildan so'ng Degrez hunarmandlar mahallasi yo'qolib ketdi.

XIX- XX asrlarda Toshkent ustalari faqat choydush chiqarmasdas balki, kashkil, satil, oftoba va boshqa idishlar ishlab chiqara boshladilar. Keyinchalik Toshkentda Samarqand, Qo'qon, Xiva va boshqa joylardan ko'plab kandakorlar kela boshladi. 1920 yillardan so'ng kandakorlik rivojlana boshladi. Toshkentda badiiy ishlab chiqarish o'quv kombinati ochildi. U yerda ko'pgina kandakorlar tayyorlana boshlandi.

Toshkent kandakorlik san'ati shakllarining kattaligi, naqshlarining soddaligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Toshkent kandakorligida ko'pincha zaminga ishlov



berilmay shunday qoldiriladi. Ensiz hoshiyalarda geometrik naqshdan yordamchi sifatida foydalanib, u serjiloligi, rang-barangligi bilan farq qilmaydi. Ensiz yo‘llarda oddiy to‘g‘ri chiziqlar, kirmak, mexrob, zanjira, kapalak, qubba va shu singari naqshlar chiziladi. Enli yo‘llarda esa asosan o‘simliksimon “islimi” naqsh (ilon izi) ishlatiladi. Toshkentlik kandakorlar san‘at asarlarida tevarak atrofimizni o‘rab turgan narsalarni naqsh orqali aks ettiradilar. Masalan, yelpig‘ich, tumor, zuluk, belanchak, olmagul, doira va boshqa naqshlar uchraydi. Toshkentda chinni idishga o‘xshash mis choynaklar ham ishlab chiqarilar edi. Har bir xonadonda suv tashish va saqlash uchun mis ko‘zalar bo‘lardi. Badavlat oilalarning mis ko‘zalari juda naqshindor bo‘lgan. 1872 yilda usta Mulla Mo‘min Omunulla o‘g‘li (Qo‘qondan ko‘chib kelgan) “piltalik”- mis choydishi kandakorlikning ajoyib namunasi bo‘lib, idishning yuqori qismi murakkab gulli naqshlar bilan bezatilgan. Uning qopqog‘i shabaka usulida, ya‘ni panjara ko‘rinishida ishlangan. Jo‘mragi, bo‘yi islimi gulzor, qorni madohili guli ixtiyor, kafti bargak va guli majnun barg kabi o‘simlik naqsh bilan bezatilgan.

Xorazm kandakorlik maktabi

Xorazm O‘rta Osiyoda eng qadimiy yuksak madaniyatga ega bo‘lgan voha hisoblangan. Mo‘g‘ullar istilosi madaniyatni rivojlanishiga putur yetkazdi, hunarmandchilik inqirozga uchradi. Xiva xonligi tiklangandan keyingina hunarmandchilik rivojlandi. Xorazmning XIX—XX asr boshlarida yaratgan xalq amaliy san‘ati namunalari boshqa viloyat mahsulotlaridan farq qiladi. Chunki Xorazm xalq amaliy san‘ati maktablari yaratilgan edi.

1967 yilda Xivada badiiy ishlab chiqarish maktabi tashkil etildi. XIX asr oxiri



XX asr boshlarida Xorazm kandakorligining buyumlari shakli, naqshi hamda nomlanishi jihatidan o‘ziga xosdir.

Xiva kandakorlari chizma usulini faqat pardoqlashga qo‘llaydilar. Shabakani juda kam qo‘llaydilar. Ular medalonlar bilan bezashni mis

idishlarning kaft, ba'zan buynining yuqori qismida qullaganlar. Xorazm san'ati oddiy bulsa-da, ta'sirchanligi bilan kishini hayratga soladi. XX asrning boshlarida Xorazm kandakorlari naqsh zaminini qora yoki qizil lok bilan bo'yaydilar. Kandakor ustalar asosan o'simlik naqshlarini juda ko'p qullaydilar. Ularda aylanma islimi naqsh ommaviy hisoblanadi. Ular islimi, murakkab islimi, madoxili, murakkab aylanma islimi va boshqa naqshlar bilan bezaydilar. Kandakorlarning geometrik chetan yoki katak naqshlari o'ziga xos originaldir. Nakqosh Abdulla Boltayev xalq amaliy san'ati ustalariga naqsh kompozitsiyalar chizib bergan. Xorazm kandakorlik maktabining vakillaridak Muxammadpano, Xudoybergan Matchonov, Sobirjon, Yusuf va Matpano Xudoyberganoalar, Matyoqub Jonibekov, Xojiniyoz Saidniyozov, Bekjon Yoqubov, Otajon Madrahimov va boshqalar shular jumlasidandir.

Samarqand kandakorlik maktabi

Samarqand san'at, madaniyat hamda badiiy hunarmandchilik keng rivoj topgan yer kurrasidagi eng kuhna shahar. XVI asrda Samarqandda kandakor usta Kamol yashab o'tgan, o'sha davrda unga teng keladigan usta bo'lmagan.



XVII asrdan boshlab XIX asrgacha xunarmandchilik ba'zida rivojlanib, ba'zida inqirozga uchrab turadi. XIX asrning boshlarida Samarqandda xunarmandchilik gurkirab rivojlandi. U yerda misgarlik hamda kandakorlikning uziga xos maktablari paydo bo'ldi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng, Samarqand yirik shaharga aylanib savdoda va xunarmandchilikda yetakchi rol uynadi, misgarlik hamda kandakorlik mahsulotlari ishlab chiqarila boshlandi. 1924—

1930 yillarda O'zbekistonning poytaxti Samarqandda misgarlik va kandakorlik yanada rivojlandi. 1930 yili kandakorlik buyumlari ishlab chiqarish birmuncha kamaydi, chunki o'sha yili O'zbekiston poytaxti Toshkentga ko'chirildi. Samarqand

kandakorlik buyumlarini pardoqlashda gardishga o'xshash chekmani qo'llashi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari geometrik ko'rinishga o'xshash naqshlar ishlatib o'ziga xos motivga ega. Ustalar naqsh talablarini uzluksiz davom ettirib boshqalari bilan chirmashgan tanoblarni enlirok qilib ishlaydilar. Ularning naqshlari Xiva, Farg'ona, Buxoro naqshlariga o'xshamaydi. Samarqandlik kandakorlar ko'pincha memorchilik, amaliy san'at buyumlarida qullaniladigan chorbarg gullarni juda ko'p ishlatadilar. Kandakorlarning mis laganlari, chilim, cho'mich, g'ilof, kosa, g'aladon, chekish asboblari, marosim idishlarining ajoyib namunalari jumhuriyatimiz tasviriy san'at muzeyida saqlanmokda.

Usta Ahmad, Salim misgar, usta Oxunjon, usta Xaydarxo'ja. Karim G'ofurov, Karim Axmedov, usta Tog'ay va boshqalar Samarqand kandakorlik maktabining maktabining vakillaridandirlar.

Qarshi kandakorlik maktabi

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qarshida kandakorlik maktablari paydo bo'ldi. Qarshi (qadimda Neseft), ya'ni Buxoro va Xindiston O'rtasidagi karvon savdo yulidagi yirik shahar hisoblangan. U Shahrizabzga nisbatan kichik bo'lgan.

XIX—XX asrning boshlarida Buxoro amiri yuborgan beklar Qarshini boshqarar edi. Shuning uchun Buxorolik xunarmand va me'morlar Qarshiga yuborilar edi. Qarshi kandakorligi Buxoro ta'sirida bo'lsada o'ziga xosligi ham bo'lgan. Qarshida mis buyumlariga har xil rangdor shishalar qadab, naqshlarni rangdor loklar bilan qoplashgan. Keyinchalik Amir farmoni bilan Qarshilik yetuk kandakorlar Buxoroga ko'chirib olib kelingan. Qarshi kandakorlari mis buyumlarini o'zlari yasab o'zlari bezaganlar. Ular bunda qolipi

usuldan foydalanganlar. Qoplama mis parchalari, feruza rang oynalardan ko'z quyib, naqsh zaminlarini rangli loklar bilan bo'yashgan. Qarshi kandakorlik



buyumlarini bezagan o'simliksimon naqshlar Buxoro naqshlariga qaraganda oddiyroqdir. Qarshida ham misgarlikni kandakorlik bilan birga bajarilgan. Sa'diy Sharafi Asad, usta Abduqodir Nizomiddin, usta O'rin, Salohiddin, Ikromiddin, Xudoyberdi Jo'rayev va boshqalar Qarshi kandakorlik maktabi namoyandalaridandirlar.

1.4. Ustoz-shogird an'anasi – milliy qadriyat

Mustaqillik yo'lida dadil borayotgan O'zbekistonning bugungi kunida yoshlarini kamolotga intilish ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini o'stirishda o'lkan tadbirlar olib borilmoqda. O'zbek xalqning o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an'alarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an'ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi.

Inson o'zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo'lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi, dasturxon to'kinligi, qulay shart-sharoit) va ma'naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg'unligiga erishadi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda taraqqiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – Barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarida ham islohotlar olib borish zaruriyati tug'ildi. "Biz uchun, - degan edi Prezident I.A.Karimov, - ma'naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim".

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixini so'ngi davrlariga nazar tashlar ekanmiz, sobiq ittifoq davrida yurtimizda barcha sohalar qatorida madaniy boyliklarimiz asosini taminlashga xizmat qiluvchi soha hisoblangan arxiv ishiga bo'lgan e'tiborsizlik oqibatida soha jamiyatda o'z o'rnini yo'qotgan edi. Shuningdek, soha vakillarining aksariyatining yoshi o'tgan kishilardan iboratligi hech kimga sir emas, shunday ekan, ustoz-shogird kabi asriy an'alar hususida so'z yuritishning xojati ham yo'qligi barchamizga ayon. Mamlakatiz istiqloлга erishgan dastlabki yillaridan davlat va jamiyat qurishning barcha sohalarida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilib, arxiv ishi sohasida ham juda katta islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublikamizda arxiv ishini takomillashtirishga qaratilgan qator qonun, qaror va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib faoliyatga tadbiiq etildi. Hududlarda arxiv muassasalari tashkil etildi, mavjudlariga yangi binolar qurildi, ularning moddiy texnik bazasi yangiladi. SHu bilan birga, sohada kadrlar salohiyatini oshirishga

qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, birgina Navoiy viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi arxiv muassasalarida milliy qadriyatimiz sifatida qadimdan rivojlanib kelgan “ustoz-shogird” an’anasi asosida soha vakillari viloyatda arxiv ishini rivojlantirish yo’lida mehnat qilib kelmoqdalar. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalari talabalari yosh kadrlarni soha taraqqiyoti yo’lida to’g’ri yo’naltirish maqsadida “ustoz-shogird” an’anasi asosida malakali professor-o’qituvchilarga biriktirilgan. Soha rivojini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qilayotgan “ustoz-shogird” an’anasining birgina dalili sifatida Boshqarma boshlig’i Bekova Sayyora Saidovnaning say-harakatlari bilan uning shogirdlari bugungi kunda jamiyatimizning boshqa sohalarida ham ustozidan olgan bilim va ko’nikmalari asosida yetuk salohiyatli o’qituvchi, kasb egasi sifatida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Shu jumladan, shogirdlar qatorida mening ham borligim men uchun yuksak faxrli mas’uliyat yuklaydi desam, adashmagan bo’laman chunki, ustozning bergan bilim va ko’nikmalari, eng asosiysi bildirgan ishonchini oqlash, el-yurt oldida ustoz nomiga dog’ tushurmaslik kabi katta mas’uliyat turibdi.

Bilamizki, ustoz degan sharaflı nomga sazovor bo’lish har kimga ham nasib etmagan. Bu ulug’ nomni olish uchun ko’p yillar davomida murakkab sinovlardan o’tishi lozim bo’lgan. Ko’plab mutaxassislar orasida bu sharaflı nomga kamdan-kam inson muyassar bo’lgan.

Turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o’rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So’g’diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo’lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardek jasur o’g’lonlar dunyoga keldilar. Ular o’z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma’nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o’z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e’tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar.

Qadimda milliy an'ana bo'yicha shogirdlikning o'ziga xos odob-axloq qoidalari bo'lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin. Avvalo, o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; o'z kasbiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; ko'rish lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish; ustoziga zid bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so'rasalar, oltita degin: rostgo'ylik, vafodorlik, mas'uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so'rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so'rasalar, hamkasb do'stlarini xushnud etish deb javob bergin»

Darhaqiqat, Mustaqillik yoshlar kamolotiga yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, sahovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lish kabi umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi.

Binobarin sog'lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek, sharqona axloq-odob va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan insonni ham ko'zda tutmog'i lozim. Zero buyuk alloma A.Avloniy ayganidek: tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.

I. Shogirdlarning odobi

I.1 Shogirdalning odob qoidasi. Shogirdning o'z kasbini sevishi, o'z ishiga e'tiqod qo'yishi va o'ta ishonishi. Ustoz oldida hokisor bo'lishi. Ko'rish lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish. Eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik. Noloyiq ishlar qilmaslik. Ustozga zid bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

I.2 Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari. Ustozga it'ovatli bo'lish va ustoz an'analarini davom ettirish. Ustozning pand-nasihatlari. Sabr toqatli va irodalilik. Ustozni yuzini erga qaratmaslik, uning obro'sini ko'tarish. Ustozning shaniga iliq so'zlar olib kelish. Ustozning dushmani bilan do'st tutinmaslik. Ustozning oila a'zolarini hurmat qilish. Ustozning qarindosh-urug'larini hurmat qilish. Ustozning ruxsatisiz xech narsaga qo'l tekkizmaslik. Birovning narsasiga ko'z olaytirmaslik. Ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo'lish.

I.3 Shogirdning eng yaxshi xususiyatlari. Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozni ko'rganda birinchi bo'lib salom berish. Ustozning oldida oz gapirish va boshini egib turish, ko'zni har tomonga yuguntirmaslik. Agar maslahat so'ramoqchi bo'lsa, oldin ijozat olish. Ustoz ob aytganda e'tiroz bildirmaslik. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik. O'tirib-turish hurmatini saqlash.

I.4 Shogirdlar ruhiy olamining muhim zamini. Shogirdlar ruhiy olamining muhim zaminlarining asoslari. Vatanparvarlik, o'rtoqlik, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, sadoqat, mehr-muruvvat, kasb tanlash imkoniyati, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, ozodalik, pokizalik, samimiylik, ziyratashabbuskorlik, insoflilik, rostgo'ylik, or-nomuslilik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, soft muhabbatni qadrlash, vazminlik, to'g'rilik, millatlarni hurmat qilish, ota-onasini hurmat qilish.

I.5 Shogirdlarning bir-birlariga munosabatlari odobi. Shogirdlarning bir-biriga munosabatlaridagi ijobiy va salbiy holatlar. O'zaro ko'rkam xulq bilan samimiy munosabatda bo'lish. Intizomli bo'lish. Bir-birini aybini inkor qilmaslik. Erinchoq va yalqov bo'lmaslik. Do'stlarining omonatiga xiyonat qilmaslik, ziyon-zaxmat etkazmaslik. Munofiq va riyokor bo'lmaslik, adovat, xasad, g'iybat, ig'vo qilmaslik, yolg'on so'zlamaslik, do'stini aldamaslik, bir-biriga yordam berish. Do'stining muvaffaqiyatidan quvonish.

II. Ustozlar odobi

II.1 Ustozning shaxsiy fazilatlarini. Ustozning shaxsiy fazilatlarining o'ziga xos tomonlari: Saxiylik, odoblilik, mehr-shafqatlilik, marhamatlilik, ochiq yuzlilik,

xushmuomalalik, sabrlilik, talabchanlik, iffatilik, itoatilik, qanoatilik, to'g'ri so'zlilik, poklik, muloyimlik, rostgo'ylik, o'rtoqlik, do'stlik, xamkorlik, xamjihatlik, sadoqatlilik, vatanparvarlik, samimiylik, ozodalik, pokizalik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, or-nomuslilik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, soft muxabbatni hurmat qilish, ota-onasini hurmat qilish, mehr-muruvvatlilik va boshqalar.

II.2 Ustozning kasbiy fazilatlari. Oson yo'l bilan murakkab bilimlarni shogirdlarga o'rgata olishi (uquvchanlik), barcha hunar va fan turlari yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lish, qisqa daqiqalarda shogirdlarni uyushtira olish va boshqarish iste'dodi, ixcham va ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, sur'at, chastotaga ega bo'lgan nutq, o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustaxkam irodasi bilan obro' orttirishi, muomala va muloqat o'rnata olishi, insoniy qiyofasi, harakatlari va qilgan ishlari asosida kelajagini oqilona tasavvur qilishi, imon-e'tiqodga, faol hayotiy jarayonlarga yo'naltirish qobiliyati, tashabbusga, ijodga ilhomlantira olishi, tadqiqotga layoqatlilik, ya'ni o'z hunariga yangiliklar kirita olish, o'z hunariga qiziqishi va uni yoshlarga sidqidildan o'rgata olishi, sohasi bo'yicha o'zidan keyin sodiq shogirdlar qoldirishi va boshqalar.

II.3 Ustozning shogirdlarini ota-onasiga bo'lgan munosabatlari. Ota-onaning ustozga bo'lgan munosabatlari. Farzandiga hunar o'rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish. O'z vadasidan chiqish. Ota-onasiga farzandining qobiliyati, hulq odobi to'g'risida ochiq gapirish.

Ustozga muruvvat ko'rsatish. Ustozning farzandlariga bo'lgan tanbehini tushinish. Farzandiga hunar o'rganishida kerakli narsalarni etkazib berish. Ustozini rozi qilish.

III. Hunarmandlar odobi.

III.1 Hunarmandlarning odob qoidasi. O'z hunarini iflos va shubhali daromadlardan asrash. Hunarni boylik orttirish manbai deb emas, balki hayotda munosib o'rin egallash maqsadida o'rganish. O'z ishining ustalariga doimo hurmat va ehtiromda bo'lish. Nopok yo'llar orqali boylik to'plovchilar bilan aloqa qilmaslik va tanlagan kasblariga befarq bo'lmaslik. Mahsulotning asl bahosini bilmaganlar

bilan to'g'ri muomalada bo'lish. Agar oldi-berdi tarozi bilan bog'liq bo'lsa, kam bermaslik va ko'p haq olmaslikka intilish. Agar ish hisobchi bilan bitadigan bo'lsa, o'zlarining xissasidan yuqori qo'ymaslik.

III.2 Hunarmandlarning kasb madaniyatlari. Hunarni jamiyat taraqqiyotida hissa qo'shish maqsadida o'rganish. Hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash. Ustozlar an'anasiga ehtiromda bo'lish. Muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik. Hunarda aqilli tadbirkor bo'lish, rost so'zlash, pokiza bo'lish. Bir ishni qiyomiga etkazmay turib boshqa ishga o'tmaslik, halol mehnat qilish.

III.3 Hunarmandlar holi bo'lishi lozim bo'lgan xususiyatlar. Nopok kishilar bilan aloqada bo'lish. Boshqa hunarmandlarga nisbatan adovatda bo'lish xasadgo'ylik va boshqa muvaffaqiyatini ko'ra olmaslik. Hunarni boylik orttirish maqsadida qo'llash. Jur'atsizlik, dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarchilik, takabburlik va yolg'on gapirish.

II BOB. YOSH AVLODGA MIS KANDAKORLIGI MAXORATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

2.1. Ta`lim jarayonida mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishda individual yondashishning tutgan o`rni

Oliy pedagogik ta`lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo`lajak o`qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo`lishi ma`lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta`lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog`liqdir.

O`quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha yondashish zaruriyatining asosiy mohiyati o`qituvchilarning an`anaviy usullardan voz kechishlari hamda noan`anaviy usullardan foydalanishlaridan iborat. O`qituvchi hamda talabalar orasida yangicha pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o`quv jarayoniga tabaqalashgan yondashuvning tatbiq etilishi, ta`lim oluvchilarning imkoniyatlari va o`ziga xosliklarni hisobga olgan holda ularga individual yondashish tajribasini pedagoglar puxta o`zlashtirishlari zarur.

Ta`limda individual yondashish nima degan savol tug`ilishi mumkin. Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko`ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o`zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratish deganidir.

Ta`lim tizimini zamonaviy yangilash doirasida yetakchi yondashuvlardan biri alohida yondashuv hisoblanadi.

Pedagogika fanining tarixida Ya. Komenskiy, K.D. Ushinsky, V.A. Suhomlinskiy, E. Rabunskiy va boshqalar asarlarida alohida yondashuv g`oyalari aks ettirilgan. Shaxsiy yondashuvni qo`llashning zamonaviy aspektlari talabalarning ijodiy fikrlashni rivojlantirish va badiiy sohada mutaxassislarni tayyorlash (S.A.Amanjolov, M.E.Vannik, G.Gorbunova, N.A.Kosenko, A.A.Malaxov va

boshqalar). Shu bilan birga, kelajakdagi o'qituvchilarni o'qitishda alohida yondashuvni joriy etish masalalari yetarli darajada qamrab olinmadi.

Mazkur asoslarga tayangan holda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda olimlarimiz quyidagilarni tavsiya qiladilar:

- o'rtacha o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan talabalarga qarab faoliyat yo'nalishini belgilash amaliyotidan voz kechish;
- har bir talabaga xos bo'lgan sifatlarni aniqlash va ularni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, aqliy-intellektual xususiyatlarini aniqlash, tanlagan kasbiy yo'nalishlarini aniqlagan holda zarur maslahatlar berish;
- auditoriyadagi har bir talabaning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatini hisobga olgan holda o'quv topshiriqlarini tanlash;
- o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni guruhlariga bo'lib ishlashga undash lozim.

O'quv-tarbiya jarayonini pedagogik innovatsiyalardan foydalangan holda tashkil etish va boshqarish fan o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy layoqatlari doirasida zamon talablariga mos holda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydigan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratishni taqozo etadi.

O'qituvchilar talabalarning hayotiy ehtiyojlariga mos keladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ular faoliyatiga singdirish orqali ularga tabaqalashgan hamda individual yondashish imkoniyatlarini yaratishlari kerak.

Kichik guruhlarning tez-tez ishlatib turadigan usullari talabalarni o'qitishga alohida yondoshish muammosini to'liq bartaraf eta olmaydi. Bu uslubiy metodlardan faqat bittasi. Talabaga individual yondoshish - ta'limning strategiyasi va taktikasi, ta'limning kontseptsiyasi va tamoyilidir.

Darsning birinchi kunlaridan boshlab o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqani o'rnatish muhimdir: o'qituvchi – talaba, o'qituvchi – auditoriya emas. Har bir talabaga bilim berish kerak, bu esa o'z navbatida bir katta munosabatlar tizimidir. Tanishuvdan boshlab, xar bir talabaning individual xususiyatlari, ta'limning

boshlang'ich jarayonidagi qiziqishlaridan boshlab, sistematik individual vazifalar berish, nazorat qilish va bilimlarni baxolashgacha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli hamda PQ-3151-sonli qarorida belgilangan vazifalarni ijro etish hamda mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, iqsodiyot va ijtimoiy soxa tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, bakalavr va magistrnlarni tayyorlashda ish beruvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini inobatga olgan holda son va ta'lim yo'nalishlari uyg'unligiga erishish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnatidan foydalanishni yaxshilash, shuningdek iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning o'rtacha muddatga mo'ljallangan maqsadli dasturlarini joriy etish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlash va diversifikatsiyalash hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida:

Hozirgi kunda davlatimiz rahbarining doimiy e'tibori va qo'llab-quvvatlashi tufayli oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish, erishgan yutuqlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish, turli Davlat stipendiyalarini tayinlash, yosh kadrlarga malakali professor-o'qituvchilarni biriktirish orqali "Ustoz-shogird" an'anasini davom ettirish kabi ustuvor vazifalar davlat siyosati darajasida olib borilmoqda.

Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual elitani tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir. Iqtidorli yoshlar - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi.

Ana shu borada amalga oshirilayotgan ishlarning bir debochasi sifatida "Kasb ta'lim" yo'nalishida quyidagi ishlar olib borilmoqda, xususan kafedra huzurida

“Sehrli igna”, “Mis kandakorlik”, “Yosh ijodkorlar” to’garagi tashkil etilgan bo’lib, maqsadga intiluvchan, qat’iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug’ullanish istagi bilan ajralib turuvchi, o’quv, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy ishlarida faol qatnashayotgan iqtidorli talabalar jalb etilgan. Ularga intellektual salohiyatini oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari bo’yicha “Ustoz-shogird” tizimida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug’ullanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilib, talabalarning har biriga ilmiy darajali hamda ilmiy tadqiqot ishlari bo’yicha yetarli bilimga va malakaga ega bo’lgan professor-o’qituvchilar ilmiy rahbar etib birlashtirilgan.

Individual yondashish metodining afzalligini mis kandakorligi san’ati misolida taxlil qilib ko’raylik. Mis kandakorligi maxoratini rivojlantirishda har bir talabaga individual yondashish usulidan foydalanish o’zining ijobiy tomonlari bilan alohida o’rin olgan. Mis kandakorligi amaliy san’atining eng qadimgi turlaridan biri bo’lib, unda birgina po’lat qalam va bolg’acha yordamida ish jarayoni olib boriladi. Albatta, har qaysi san’atni o’rganishdan oldin uning tarixini bilish zarurligi hammaga a’yon. Nazariy bilimlarni talabalarga suhbat va ma’ruzalarda yetkazsak, amaliy ko’nikmalar esa amaliyotda vujudga keladi. Amaliy san’atning qaysi bir turini o’rganmasa inson, u avvalam bor naqsh chizishni o’rganishi shart. Chunki naqsh bu amaliy san’atning asosini tashkil qiladi. Mis kandakorligi san’ati ham o’zining naqshlari bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Demak darsning amaliy jarayoni mis kandakorlikda ishlatiladigan naqshlarni o’rgatish bilan boshlanadi. O’qituvchi auditoriya doskasida naqshlarini birma-bir chizib ko’rsatganidan keyin, talabalar o’zlarining daftarlarida ishga kirishadi. Bu jarayon oddiydan murakkabgacha olib boriladi. Dars davomida har bir talabaga alohida e’tibor qaratiladi, uning qilayotgan ishi o’qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. O’qituvchi har bir talabaning ish daftariga namuna chizib bersa va asosiy xatosini tushuntirib ko’rsatsa juda yaxshi samara beradi. Talabaning o’zlashtirishiga qarab vazifani murakkablashtirish mumkin, aksincha qiyinalayotganlarga esa qaytib tushuntirish ishlari olib boriladi. Amaliy darslar davomida talabalarga auditoriya

doskasida naqshlarni chizish taklif etiladi. Buning afzalligi shunda ki, talaba o'zining doskada ishlash qobiliyatini rivojlantirsa, o'tirgan talabalar uning yutuq va kamchiligini topishga harakat qiladilar. Mis kandakorlik naqshlarini o'rgatib bo'lgandan so'ng, keyingi darslarda shu o'rgangan naqshlarni metal parchasida o'yish bosqichi boshlanadi. Bu bosqich eng murakkab bosqich hisoblanadi. Chunki unda talaba uchun noodatiy: po'lat qalam, bolg'acha va mumli dastgoh kabi ish qurollari ishlatiladi. Bunday ish qurollarini birinchi bor qo'llariga o'layotganligini bilib, o'qituvchi har birini qaysi qo'lda qanday ushlashini nafaqat tushuntirib, balki har bir talabaga individual ushlatib ko'rsatadi. Metalda naqshlarni o'yish jarayoni o'qituvchi tomonidan bajarilib ko'rsatiladi. Shundan keyingina talabalar o'zlarining ish qurollarini qo'llariga olib ishga kirishadi. Albatta boshida hammalari qiyinaladi. Dars davomida o'qituvchi har bir talabaning yoniga borib, uning ikki qo'lidan ushlab ish qurollarini to'g'ri ushlashini va ishlatishini tushuntirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Metalga ishlash jarayoni oddiy to'g'ri chiziq o'yishdan boshlanadi. Har qaysi fan yoki san'atni o'rganish davomida tez o'zlashtiradigan va oqsaydigan talabalar uchraydi. Shuni inobatga olib fan o'qituvchisi vazifani berishda individual yondashish tavsiya etiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek to'g'ri chiziqni chiroyli o'ygan talaba naqsh o'yishga o'tadi, to'g'ri chizig'i talabga javob bermagan talaba esa yana o'z ishini davom etadi. Shundan ma'lum bo'lyapti ki, san'atni o'rgatish jarayonida individual yondashish metodidan foydalanish nafaqat tavsiya etiladi, balki u siz o'qituvchi hech qachon o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi.

2.2. Bo`lajak mutaxassislarda mis kandakorligi bo`yicha bilim-ko`nikmalarini shakllantirish

Millatimizning an'anaviy san'atini o'rganish bo'lajak mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu qiziqishlarni qondirish uchun, yoshlarga o'z xalqining badiiy madaniyati xususiyatlarini egallashda, san'at asarlarini bilib va o'rganib olishda bilimli pedagoglarning o'rni katta.

Bilim, bilim o'zi nima? Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan, umumlashgan tajribasidir. Bilimlar insoniyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zlashtirish jarayonida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va ob'ektiv dunyoni chuqurroq anglashga hamda o'zlashtirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit asoslangan majmuasidir. (Z.X.Qo'ldosheva "pedagogikadan nazorat ishlarini tashkil etish va o'tkazish") Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan san'atimizning siru-asrorlarini be kamu-ko's kelajak avlodga yetkazish maxoratli pedagoglar zimmasiga tushgan. Bu jarayonni tashkil qilish obro'-e'tiborli va tarbiyalangan insongina qodiridir. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishi kerak. Ayniqsa, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchidan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi .

Xozirgi kunga kelib xalq amaliy san'atida yaratilgan maxsulotlarga xalq talabi nihoyatda katta bo'ldi. Bu maxsulotlar nafaqat xalq ehtiyojini qondirish, balki ularga estetik didini yuksalishiga, o'zbek halqining madaniyatini yanada yuksaltirishga muhim ro'ly o'ynaydi. Amaliy san'at turlarini o'rgatish orqali pedagog, avvalam bor, talabalarga badiiy va estetik tarbiya berishni ko'zda tutadi. Go'zallik tuyg'usini rivojlantirish, yuksak estetik didini shakllantirish, san'at

asalarini, tarix va arxitektura yodgorliklarini, tabiat go'zalliklari va boyliklarini to'g'ri tushinish va qadrlash mahoratini rivojlantirish zarur. Shu maqsadda har bir o'quv predmetining ayniqsa, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at, estetika fanlari o'rgatilishi jarayonida talabalar bilim doirasini kengaytirish bilan birga katta tarbiyaviy jarayon bosib o'tiladi.

Kandakorlik san'atini bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilariga chuqurroq o'rgatish maqsadida mis kandakorligi (mis, jez, brinji, alyumin) fan sifatida olib borilyapti.

Mashg'ulotlar avvalo talabalarning sabr-toqatini, diqqatini, iroda va mexnatsevarlikni, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarda estetik didini tarbiyalash qobiliyatini o'stiradi.

Kandakorlik siru-asrorlarini o'rgatilishi haqida gap borar ekan, xalq ustalari ijodi va maktablarini eslab o'tishga to'g'ri keladi. Mis kandakorligi darsining birinchi soati shu san'atning tarixi va maktablari bilan tonishtirish borasida ma'lumot berish orqali davom etiladi. Kandakorlik san'atiga qiziqish uyg'otish fan o'qituvchisi oldida eng asosiy maqsad bo'lib qolishi kerak bo'ladi. Bunga erishish uchun o'qituvchi avvalam bor darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi talab qilinadi. Mis kandakorligi san'atining tarixini tushuntirilgandan so'ng, hozirgi kunda Samarqand, Buxoro, Xorazm, Shaxrisabz, Qarshi, Farg'ona va Toshkent shaharlarida asosiy milliy kandakorlik markazlarining ijodi va faoliyatini ham unutmash kerak bo'ladi. Har bir xudda ijod qilib kelayotgan kandakor - ustalarning o'ziga xos ish uslubi, ishlari esa bir-biriga o'xshamas naqshlari bilan ajralib turilishini aytib o'tish lozim.

Kandakorlik maktablarining o'ziga hos ish uslubi, o'yilgan naqshlarining chuqurligi va mayinligi bilan, kompozitsiya zaminini bezash usuli bilan farq qilishi haqida aytib o'tilmoq zarur. Turli viloyatlardagi kandakorlik maktablarining ishlarini kuzatsak agar shu farqlarni sezishimiz mumkin. Ammo har bir maktab o'ziga hos go'zallika, nafislikka ega ekanligini yana bir bor takidlash lozim. Talabalar kandakorlik maktablarini farqlashlari uchun, dars jarayonida ko'proq ko'rgazmali metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ustalarning ijodi bilan yaqinroq tanishtirish kerak. Ko'rgazma sifatida nafaqat tasvirlar, balki mis

kandakorlikda bajarilgan turli buyumlar namoyish qilinadi. Talaba kandakorlikda bajarilgan buyumni qo'lda ushlabgina, unga qiziqish, mexr, ustaning mexnatiga xurmat va havas paydo qilishi mumkin. Kandakorlik maktablarni taqqoslash uchun prezentatsiyadan foydalanish tavsiya qilinadi. Prezentatsiyada xar bir maktab ustalarining suratlari bilan birga ular tomonidan bajarilgan kandakorlik buyumlari namoyish qilinadi. Ustaxonalarda tasvirga olingan video master klasslar namoyishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu an'analardan yangi vazifalarni hal qilish yo'lida foydalanish O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati rivojlanishining muqarrar shartidir. Ushbu san'atda xam xalq xarakterining nozik xususiyatlari uning estetik karashlari, dini, atrof muhitga munosabati, iste'dodi xuddi afsonalardagi, musiqa she'riyat va raqsdagi singari o'z aksini topgan.

O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati tiklanib kelmoqda, shiddat bilan rivojlanmoqda va yuksalmoqda. Respublikada ishlab turgan xalq ustalari safi kengayib boriyapti. Bu esa mustaqillik davrida mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirish, kishilarni intellektual va axloqiy kamol toptirish uchun qulay sharoit ko'proq, yaratilayotganining dalilidir.

Yoshlarda estetik his-tuyg'ularni o'stirish, estetik idrok, tushuncha, tasavvur, bilim, ko'nikma, odat va didni tarbiyalash miskandakorligi fan o'qituvchisining asosiy maqsadi hisoblanadi. Estetik bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni tarbiyalash biz pedagoglar fanimizni o'rgatish jarayonida amalga oshirib borishimiz zarur. Yoshlarni tabiatdagi, jamiyatdagi va kundalik turmushdagi barcha faoliyatlarda go'zallik qonuniyati asosida axloqiy sharqona xulq-atvorda tadbqiq etish eng muhim pedagogik masaladir.

Badiiy tarbiya - san'at (adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san'at) vositasida tarbiyalashdir.

Badiiy adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino sohasida eng yaxshi asarlar o'z vositalari yordamida hayotni haqqoniy va yorqin aks ettirib, bu hayotga to'g'ri baho berib, kishilarning ongi, tuyg'usi va xayollariga ta'sir qiladi, insonni


hayot va mehnatning hamma sohalarida innovatsiya, ilg'orlik uchun kurashda faol qatnashishiga chorlab turadi.

Mis kandakorligi darslarini qiziqarli qilib tashkil etilishi va ahvoli hozirgi zamon talablariga javob beradimi degan savol tug'iladi. Ta'lim jarayonida asosan talabalarning amaliy bilimlarini boyitish maqsadida, ularni puxta kamol toptirish uchun beriladigan topshiriqlarni yanada murakkablashtirilsa, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Darslarni nafaqat auditoriyada, balki san'at muzeylarida, xunarmandchilik ustaxonalarida mohir kandakor-ustalar bilan uchrashuvlar uyushtirib, maxorat darslarini tashkil qilish tavsiya qilamiz. Ana shunday tashkil qilingan darslarda an'anaviy xalq san'atini o'rganish talabalarda katta qiziqish uyg'otishi aniq. Bu usulda o'tiladigan darslarda yoshlar o'z xalqining badiiy madaniyati, uning tarixi va texnologiyasini tushunishda va uni egallab olishda yordam beradi.

2.3. Mis kandakorlikda ishlatiladigan naqsh turlari

Naqshning eng muhim qismlarini joylashtirganda, ularning ko'pchiligi usta tomonidan faqatgina to'liq tasnifida emas, balki ikki nusxada, ba'zida esa, aksincha, yarmini olganligini hisobga olish kerak. Bu holat turli kombinatsiyalar va o'zgarishlarning imkoniyatlarini oshiradi.


Ba'zi naqshlarning terminologiyasida "Mashadi", "Isfag'oniy", "Arabi" va boshqa qo'shimchalar mavjud bo'lib, bu ba'zi mashxur ustalar o'zlarining Mashhad, Ifag'on va Arabiston ustalari tomonidan ishlab chiqilgan namunalardan foydalanganligini bildiradi. Bunday naqshni qo'llash orqali o'zbekistonlik ustalar ko'pincha uni sof o'zbekona elementlari bilan to'ldirardi.




"Mashadi" naqsh kompozitsiyasi

Mis mahsulotlarini bezash uchun ishlatiladigan eng oddiy geometrik naqsh - bu mahsulotni o'rab boruvchi doimiy tekis chizig'i, "to'g'ri-yo'l". Ko'pincha bunday chiziqlar bir naqshni boshqasidan aniq ajratish uchun xizmat qiladi. Ko'pchilik kandakorlar odatda birinchi bo'lib bu chiziqlarni buyum ustiga ishltishadi. Naqshlarning umumiy tarkibiga qarab, bu chiziqlarni bir, ikki, hatto uch qatorli uchratish mumkin.

O'zbek milliy naqqoshligida, barcha to'g'ri chiziqlar va bandlar qo'shimcha dekorativ bezaklar o'rin oladi. Ustalar ularni "zanjira"(zanjir) nomi bilan atashadi. Odatda ular turlarga bo'linadi: to'lqinli, tishchali, nuqtali, parallel chiziqlar.



“Zanjira” naqshi




Mis kandakorligida ishlatiladigan eng qadimiy naqshlardan biri “davra” gul - "tugma". Davralarning o'rtasida odatda bir nuqtasi bo`ladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu davralar yulduzlar, oy va quyosh tasvirini belgilashi kerak, bu esa bu naqshni diniy e'tiqod va e'tiqodlar bilan quyosh tizimiga bog'langanligini ko'rsatadi. Shu sababli, bu naqsh juda keng tarqalgan bo'lib qoldi.

“Davragul”

Xuddi shunday ko`p qo`llaniladigan naqshlar qatoriga davra-gul ham kiradi. Ushbu naqshning kelib chiqishi quyosh belgisi bilan ham yaqindan bog'liq va ayni paytda quyosh va oying tasvirini taqlid qilishdir. Ushbu naqsh, odatda, mis patnislarining pastki qismida, tovoqning markaziy maydonida, uchratish mumkin. Ko'pincha bunday davra-gullar gulchambarga o'xshaydi, bu holda (Buxoro naqqosh ustasi terminologiyasida) "naqshi-girdon", ya'ni "charxpalak" deb ataladi.

Ushbu turdagi davra-gullar odatda gilam va kashtalarida qo`llanilgan. Kompozitsiya markazida odatda “xovuz” (suv ombori) va gullarni bog'iga o'xshash o'simliksimon shakllari bor. Davra-gullar o'zbek xalqining deyarli barcha san`at turlarida keng qo`llaniladi. U badiiy kashtachilikda muhim rol o'ynaydi: yog'och o'ymakorlik eshiklarga o'yilgan davra-gullarni, tosh, marmar, ganch va kulolchilikda o'yib ishlangan. Ba'zi hollarda, bu xovuzaklar aylana shaklini tashkil qiladi.




Odatda, mis kandakorligida, doyragul ko'p yog'li gul yoki barglar shaklida bo`lsa, ba'zida u chizikli naqshdan hosil bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan "naqshi-girdon" naqshidan tashqari, ta'qib qilishdan tashqari, O'zbekiston xalq ustalari tomonidan ishlab chiqarilgan boshqa turdagi mahsulotlarda ham, faqat boshqa nom ostida mavjud. U "chillolak" (g'ildirak)

nomini olgan Buxoro ustasi maxsus ixtisosligi bo'lgan yengil ipak sharflar ("qalg`ay") kashtalarida ishlatilgan; biz uni "niqob" (oshqovoq) naqshida ko`ramiz.

Kandakorlikda eng ko'p qo'llaniladigan naqshlardan biri "islimi"-o'simliksimon naqshlar turidir. Bu naqshlarsiz bironbir kompozitsiyani tasavvur qilib bo'lmaydi.


Uning sanoqsiz hilma-hilligi va usta-naqqoshlar uchun tasavvurlarini



keng yoritish imkoniyatlariga ega bo'lishlari: ba'zida o'sib chiqayotgan novda shaklida, silliq chiziqlar, ba'zida gullagan shoxalar.

Islimi naqshlar eski kitoblarni badiiy bezashda (kitobat san`atida) ham qo'llanilgan. O'zbekiston arxitektura qurilishlarining devoriy bezaklarida, matolarga badiiy ishlov berishda ham islimi naqshlarni uchratishimiz mumkin.

O'zbekiston xunarmandlarining ishlarida "madohil" naqshi keng qo'llaniladi. Mis kandakorlikda esa bu naqsh har doim, "g'isht" , "turna", "mexrob" kabi



naqshlardek ko'p ishlatiladi. Xuddi shunday Marg'ilon mis kandakorligida "bodom" gulini uchratishimiz mumkin.


Eng qadimiy buyumlar esa arab alifbosidagi yozuvlar, ba'zida harflarning har xil ko'rinishlarda bajarilgan. Ba'zida bu yozuvlar gullar bilan chambarchas bog'langanligini ko'ramiz. Xozirgi kunda arab xattotligi o'rnini o'zbek yozuvlar bilan almashgan.

Eng muhim guruhga "chor-islimi" naqshini ajratib qo'yishgan. "Chor-islimi"-bu to'rtta elementdan tashkil topgan aniq konturlarga ega bo'lgan gulli naqsh. "Chor-islimi" naqshining tuzilishi odatda bezatilayotgan buyumning shakliga bog'liq bo'ladi. Bezatilayotgan buyum aylana, oval yoki kvadrat shakliga o'xshasa, demak "chor-islimi" naqshi shu shaklga o'xshab boradi.

Oldingi davrlarga mansub mis buyumlarda tasviriy san'atga mansub naqshlar juda tez-tez uchrab turadi. Xatotlik naqshlari qatori ko'pincha inson va xayvonot olamining tasvirlari ham mavjud. Ammo shu kabi antropomorf xarakterli kompozitsiyalar XIX asr mis buyumlarida kam uchraydi. Uning o'rniga geometrik

va islami naqshlarning bir-biri bilan stillashgan naqshlar kompozitsiyasi vujudga keldi.

Badiiy mis kandakorligi – bu rivojlangan milliy san’at turlaridan biridir.



“Chor-islami” naqshi

2.4. Kandakorlikda mahsulot ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishning amaliy qismini olib borish jarayoni

Kandakor ustaning ish qurollari juda oddiy bo'lib: yog'ochli dastgoh, temir pargor (sirkul) bolg'acha, po'lat qalam, po'lat qalamni charxlaydigan tosh.

Mis kandakorligida buyumni bezash ikki uslubda bajariladi bu: po'lat qalam yordamida o'yish va bosma uslubda. Ikkinchi uslubda mahsus turli o'lchamdagi temir iskanalarni yog'och bolg'acha yordamida tasvirni bosma uslubda chiqorilar edi. Bu uslubda ishlangan tuyum kompozitsiyasi hajmli bo'lib



bo'rtib chiqadi. XIX asrga kelib hajmli kandakorlik bezaklariga talab keskin pasaydi. O'yma kandakorlik esa hozirgi kungacha murakkabligi hamda jilosi bilan hammani hayratga solib keliyapti.

Ba'zida ustalar kandakori uslubini boshqa metall turlari (kumush), rangli emal bilan qoplaydilar, rangli toshlar bilan bezatadilar.

Texnik usullarga mis kandakorligi kesma naqshlar quyidagilarga tekis ("naqsh") yoki chuqur ("kandakori") o'ymakorlik; kesma naqsh ("shabaka"); rangli emal bilan qoplangan naqsh ("minokori").

Misdan buyum chiqorishda Buxoro oldingi o'rinda turadi: buyumlarning hilma-hilligi va naqshlarning ustalik bilan bajarilganligi ham o'zgacha.

Men bitiruv malakaviy ishimi boshlashdan oldin ko'p tayyorgarlik ishlarini olib bordim. Mis kandakorlik san'atining tarixiy rivojlanishini, mis kandakorlik maktablari va texnologiyasini yanada chuqurroq o'rgandim. O'qish jarayonining 3-4-bosqichida mis kandakorlik fan sifatida o'tildi. Dars jarayonida mis kandakorlik san'ati tarixini, O'zbekiston kandakorlik maktablarini, mis kandakorligida buyum ishlab chiqorish texnologiyasini yaqindan o'rgandim va shu san'atga qiziqib qoldim.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy qismini bajarishda, shu sohaga oid adabiyotlarni o`rgandim. Shaxrimizda faoliyat ko`rsatib kelayotgan mis kandakorlik ustaxonalariga borib, kandakor-ustalarning ijodi bilan yaqindan tanishdim. Kerakli maslahatlarini oldim.


Yuqorida aytib o`tganidek, qadimda ustalar kandakorlik ishlarini yerga o`tirib ishlagan bo`lsa, xozirgi kunga kelib ish joylari ozgina o`zgargan. Xozirgi kun kandakor-ustalarning ish joyi ancha qulayliklarga ega. Kandakor ustalarning ustaxonalarida maxsus stollar-*verstaklar* mavjud bo`lib, uning ustiga (kanifolli dastgoh, qolop) qo`yib ish jarayoni olib boriladi.



Kanifolli qolip o`zi nima va qanday tayyorlanishini ham chuqurroq bilib oldim. Kanifolli qolip – bu mahsus kandakorlar ishlatiladigan taglik. U turli geometrik shakllarga ega bo`lishi mumkin: aylana, to`rt burchak yoki ko`p qirali shaklga ega. Qolipning o`lchami ishlanadigan buyumning o`lchamidan kattaroq bo`lishi lozim. U asosan yog`ochli taglikdan iborat bo`lib, atrofi 10-15 santimetr balandligida temir devorcha bilan o`ralgan. Mana shu taglikning ichi eritilgan kanifol bilan to`ldiriladi va usti tekkislanadi. Sovutilgan qolip ishga tayyor hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy qismini boshlashdan oldin 30x30 o`lchamli lali tanlanib, unga naqsh kompozitsiyasi tuzildi. Aylana shakldagi naqsh kompozitsiyani bajarish uchun men lali radiusini o`lchab uning 6/1 qismi uchun naqsh tuzdim va uni kalka qog`oziga ko`chirdim.

Verstakning kanifolini olov yordamida eritib ustiga lalini qo'yib asta bosdim va sovutishini kutdim. Sovigandan keyin lali ishga tayyor bo'ldi.



Laliga kompozitsiyani tushurishdan oldin temir pargor (sirkul) bilan kerakli o'lchamdagi doiralarni chizib chiqildi. Bajarilgan eskizni mis buyumga ko'chirishdan oldin, tasvir yaxshi metall yuziga o'tishi uchun, buyum yuzasiga plastelinni yaxshilab surtdim. Eskiz tagiga qora kopirovka qog'oz qo'yib laliga to'g'ri joylashtirdim va plastelin bo'lakchalari bilan to'rt tomonidan yopishtirdim. Tayyor naqshni qalam bilan ustidan chizib chiqqanimdan keyin, kandakorlik jarayonini boshladim.

Kandakorlik jarayonini boshlashdan oldin o'zimga qulay bo'lgan ish qurollarini tanlab oldim, ya'ni bolg'acha va po'lat qalam. Laliga ko'chirilgan butun kompozitsiyani o'yib chiqdim.

Kandakorlik jarayoni tugatilganidan so'ng, qolipni olov yordamida eritib lalini kanifoldan olamiz va yaxshilab tozalaymiz. Tozalangan buyumga rangda ishlov beriladi. Akril buyoqlarning kerakli ranglarini ajratib olib laliga oxirgi bezak ishlari bajariladi. Tayyor bo'lgan lalini uzoq muddat saqlanishi uchun rangsiz lok bilan qoplaymiz.

XULOSA

Har qaysi millatning amaliy san`ati inson ongli hayot kechira boshlagan davrlardan buyon uning atrof-muhit bilan uyg`un va hamohang bo`lib yashashi, go`zallikni kashf etishga intilishi, rangba-rang tabiat manzaralaridan zavq va hayrati natijasida yuzaga kelgan.

Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san`atining ayrim turlari, ularning o`ziga xos tomonlari, xaqiqiy o`zbekcha ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo`yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san`at asarlarini ko`z qorachigidek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shuning uchun, bu nodir san`at xalqning aql-zakovati, noyob iste`dodi va azaliy qadriyatlarini bamisoli ko`zgudek o`zida yorqin aks ettiradi, desak, xato qilmaymiz.

Bitiruv malakaviy ishni yozish va izlanish jarayonida shunga amin bo`ldim ki, kandakorlik san`ati necha ming yillik tarixga, o`ziga xos ijodiy maktab va an`analariga, atoqli namoyondalariga ega.

Bu noyob san`atning ko`plab yo`nalishlarida samarali faoliyat ko`rsatgan va ularning izdoshlari bo`lgan iste`dodli hunarmandlar doimo el-yurtimizning hurmat-ehtiromiga sazovor bo`lib, "usta", "ustazoda" degan sharaflil nomlar bilan e`zozlanib kelmoqdalar.

Biz bo`lajak oqituvchilar osib kelayotgan avlodga amaliy san`at turlarini o`rgatishda oliy dargohda olgan bilimlarimizni, ortirgan ko`nikmalarimizni bor bilimimizni ko`rsatishishga harakat qilamiz. Biz o`qituvchilarning asosiy vazifamizdan biri o`quvchilarda mustaqil faoliyat ko`rstish mayllarini hosil qilishdan iboratdir. Hamkorlik qilish, maslahat berish asosida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatlarini boshqarish va muloqotga kirishish o`qituvchining birinchi darajali vazifalari sirasiga kiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda mamlakatimizda jamiyatni pedagoglashtirish ijtimoiy buyurtma sifatida tez sur`atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda biz ulkan pedagogic merosga egamiz.

Bu esa “Ustoz-shogird” an’anasi ko`rinishida ifodalangan. Unga ko`ra, ustoz shogirdiga kuchaytirilgan tarzda ta`lim va tarbiya beradi. Tarixdan ma`lumki bu jarayonda ota-ona yoki katta yoshli oila a`zolari ta`lim jarayoniga aralashmagan. Natijada ustoz va shogird o`rtasida o`zaro ishonch va sadoqat tarkib topgan. Shu sababli manbalarda ustoz va shogirdlarga nisbatan bir talay talablar qo`yilgan. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o`qituvchi-tarbiyachi mahorati, ustoz-shogird an`analariga ham alohida o`rinberilgan.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an’anani rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda sabr-toqat, chidam qat’iyat, xalq amaliy san’atining qiziqarli o`ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim tizimida ya’ni maktab, kasb-xunar kollejlarda, oliy o’quv yurtlarida o’quvchi yoshlarni siyosiy-g`oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go’zallikni seza bilishga, san’at asarlarini o’rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san’atga bo’lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko’nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muxim rol o’ynaydi. Hozirgi davr yoshlari nihoyatda qiziquvchan, mehnatsevar va san’atni sevuvchi avlod bo`lib yetishib kelmoqda. Bizlar, yosh pedagoglar, o`sib kelayotgan avlodga milliy boyligimiz xalq amaliy bezak san`at turlarini o`rgatib borishimiz kerak.

Shunday ekan, o’zbek xalq amaliy bezak san’ati turlaridan biri bo’lmish mis kandakorligi alohida ahamiyat kasb etadi. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko’z qorachigidek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlanib kelayotgan bu amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, o’yib, chizib, tirnab, bo’yab ishlangan, takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his-tuyg`ularini ifodasidir. Bamisoli yog`och, suyak, qora loy, ganch va boshqalarga jo etilgan hayot qo’shig`idir. Hayot qo’shigi esa zamonlardan-zamonlarga baralla yangrayveradi.

Xulosa qilib aytganda, kandakorlik san’atiga oid barcha naqsh turlarini kompozistiyalarni mustaqil tuza olishlari lozim. Naqsh kompozistiyalarni mustaqil

tuzish uchun esa naqsh asosini va ularning elementlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ramziy ma'nolarini bilish, hamda ulardan to'g'ri va to'liq foydalana olishi kerak.



Kandakorlik san'ati to'garaklarini tashkil etish, kishilarni, ayniqsa to'garak qatnashuvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, kandakorlik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan, O'zbek milliy xalq amaliy san'ati keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlari mantu yo'qolish bo'sag'asida. Ana shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o'rgatish muhim vazifalardandir.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston hunarmandchiligi durdonalari. Toshkent, "O'zbekiston". 2019,-B.5-6.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1993. - 363 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1998. - 64 b.
4. Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. T.: "Iqtisod - Moliya". 2010. B.28.
5. Abdullaev T. XIX –XX asrlarda o'zbek kandakorlik san'ati .T.1973.
6. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: 1991.
7. Abdullaev T., Faxretdinova D.,Hakimov A.Ma'danga bitilgan qo'shiq.T.1986
8. Bulatov S.S., Tolipov N. Go'zallik falsafasi. T.: Fan va texnologiya
9. nashriyoti. 2008.
- 10.Bulatov S.S , Qosimov J..T., Muxsinov S.I., Habibova M.M.
- 11.O'zbek milliy kandakorlik san'ati . T 2003
- 12.Halimova D .A .Buxoro kandakorligi . Buxoro 1996
- 13.Bulatov S.S, Qosimov J.T., Avliyoqulov M.M. Kandakorlik san'atiga oid lug'at terminlari . T. 2003
14. Halimova D, Muxsinov S. Mis kandakorligi (o'quv qo'llanma) Buxoro 1994 y.
15. O'zbekiston san'ati. - T.: Sharq, 2001. 69-72 b.
- 16.Ahmedov M.B.Yog'och o'ymakorligi. T., 2006. B.84.
17. Bulatov S.S ., Muxtorov A. Ganchkorlik san'ati. T.: 2006. B. 49.
18. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. T., «O'qituvchi», 1969.
19. Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
20. Bulatov M. S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX—XV vv.— M., «Nauka», Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi, 1978.

ILOVALAR




Ustalar ijodidan namuna





Girih elementlarini kombinatsiyalashga asoslangan naqsh kompozitsiyasi.

“Uchburchak kompozitsiyasi”








To`rtburchaklar kompozitsiyasi








Sakkiz raxli girih

Olti raxli girih







To`rlar vositasida girih chizish usullari






Girih namunalari




Yulduzsimon ellementlardan iborat bo`lgan girih

8-raxli girihni chizish bosqichlari






Aylana naqsh elementlaridan tashkil topgan naqsh kompozitsiyasi



8-5-raxli



giri


**Buxorolik kandakorlar tomonidan bajarilgan girix naqshli tabaq
namunalari**












Buyumga ko`chirilgan naqsh kompozitsiyasining konturini o`yish bosqichi



Kandakorlikda bajarilgan lalining fon qismini rangli bo`yoqlar bilan qoplash bosqichi





Buxoro naqshlarining izohli lug`ati

Oftob- quyosh.

Bargi bed- majnuntol bargi.

Bargi majnun - majnuntol bargi. Bu naqsh ko'pincha kashtachilik, ganch o'ymakorligi va naqqoshligida uchraydi.

Bodom , bodomcha - bodom guli.

Bodomi sarbargi - bodom bargchasi bilan.

Bodomi sarmadoxil - bodom madoxil bilan.

Bodomi pushti maxi - baliq tangachali bodom.

Buta - gul buta, shoxcha.

Guldona - guldon, vaza.

Gul islimi - alohida islimi naqshlar.

Guli g`o`za yoki guli paxta - paxta guli.

Gulzari iroq - gulsimon , o'simliksimon naqsh. Iroq naqshlaridan olingan.

Zanjila - zanjirsimon naqsh.

Zanjila muhja - gulli zanjila.

Islimi - o'simliksimon naqsh.

Islimi bodom - bodomli islimi.

Islimi gulzor - gulzor. To'liq o'simliksimon naqsh.

Islimi zanjila - zanjirli islimi.

Islimi qalampur - qizil qalampurli islimi.

Islimi qoshin - g`ishtli islimi.

Islimi madohil - islimi madoxil.

Islimi muhja - mug`jali islimi.

Islimi nim g`isht - yarim g`ishtli islimi.

Islimi chor raftora - to'rt tomonlama islimi.

Kirkra - kirmak.

Kurmak - qurt.

Kurmak du qalama - ikki chiziqli qurt.

Kurmak chapu rost - ikki tomonlama qurt(chap-o'ng)
Qo'sh bodom - qo'sh bodom.
Qo'sh bodomi sarmadohil - juft bodomli madohil.
Qoshin - naqshli g`isht.
Qoshini shirozi - Shirozning naqshli gishti.
Kundal - kundal matosi.
Ma - oy.
Madoxil - (arab tilidan olingan kirish joyi)
Madohilcha - kichkina madoxil.
Mavj - to'lqin.
Mixrob - mexrob.
Mixrobi bargibed - majnuntol bargli mexrob.
Mixrobi bargibed butta - majnuntol bargli va shochali mexrob.
Mixrobi muxja - mug`jali mexrob.
Mug`ja - mug`ja,kurtak.
Muxarrak - cheksiz naqsh,butun tekkislikni qoplaydigan naqsh.
Noxunak - tirnoqcha.
Nim islimi - yarim islimi.
Nim g`isht dulyaba - ikkitomonlama yarim g`isht.
Nim g`ishti kurmak - yarim g`ishtli kurmak.
Nim g`ishti mug`ja - yarimg`ishtli mug`ja.
Nim g`ishti yaklaba - birtomonlama yarim g`isht.
Sitora - yulduz.
Tugma - tugma.Qadimiy gullardan biri.
Tumor - to'mor.
Turna - turna.
G`isht - g`isht guli.
Chashmi bulbul - bulbul ko'zi.
Chashmi bulbul bargi bed - barglar orasidagi bulbul ko'zlari.
Chor guli majnun - majnuntolning to'rt bargi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston hunarmandchiligi durdonalari. Toshkent, "O'zbekiston". 2019,-B.5-6.
2. Abdullaev T. XIX –XX asrlarda o'zbek kandakorlik san'ati. T.1973.
3. Abdullayev T. XIX-XX asrlarda o'zbek kandakorligi. T., "Fan", 1974, 10 b.
4. Abdullaev T., Faxretdinova D.,Hakimov A. Ma'danga bitilgan qo'shiq.T. 1986
5. Ahmedov M.B.Yog'och o'ymakorligi. T., 2006. B.84.
6. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. T., «O'qituvchi», 1969.
7. Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G'. "G'ulom nomidagi adabiyot va san'at", 1987.
8. Bulatov S.S., Muxtorov A. Ganchkorlik san'ati. T.: 2006. B. 49.
9. Bulatov S.S., Qosimov J.T., Avliyoqulov M.M. Kandakorlik san'atiga oid lug'at terminlari . T. 2003
- 10.Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: 1991.
- 11.Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. T.: "Iqtisod - Moliya". 2010. B.28.
- 12.Bulatov S.S., Tolipov N. Go'zallik falsafasi. T.: Fan va texnologiya
- 13.Halimova D .A .Buxoro kandakorligi . Buxoro 1996
14. Halimova D.A., Muxsinov S.I. Mis kandakorligi (o'quv qo'llanma) Buxoro 1994 y. – B.: 1992.-30 b.
- 15.Hasanov R. Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi.— Toshkent. O'qituvchi, 1972.
- 16.Mirzaahmedov M. A. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi, Toshkent, «O'qituvchi», 1976.
17. Mirzaahmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. T., «O'qituvchi», 1986.
- 18.Qo'ldosheva Z. Pedagogikadan nazorat ishlarini tashkil etish va o'tkazish. – T.: "Turon zamin ziyo", 2017. 74 b.
- 19.Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. 18 b.

Internet saytlari.

www.ZiyoNet.uz

www.pedagog.uz